



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



**XALQ PEDAGOGIKASI FANINI O'QITISHNING XUSUSIYATLARI
VA AMALIY HOLATI.**

Raximberdiyeva Maxfuzaxon Murotovna

Qo'qon davlat universiteti "Pedagogika" kafedrasida o'qituvchisi

maxfuzamuratovna@gmail.com

+99890 992-76-72

Annotatsiya: *Maqola yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishda xalqimizning hayotiy tajribasi hamda turmush tarzida shakllangan amaliy qarashlari, Xalq pedagogikasi fanini o'qitishning tutgan o'rnini va yosh avlod ta'lim-tarbiya jarayonida Xalq pedagogikasining xususiyatlari to'g'risida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar : *Xalq pedagogikasi, milliy tarbiya, tarbiya, ta'lim, qadriyatlar, xalq og'zaki ijodi, ta'lim samaradorligi.*

Аннотация: *В статье рассматриваются жизненный опыт и практические взгляды нашего народа, сформировавшиеся в образе жизни, роль преподавания народной педагогики и особенности народной педагогики в процессе воспитания подрастающего поколения.*

Ключевые слова: *Народная педагогика, национальное воспитание, воспитание, образование, ценности, народное устное творчество, эффективность обучения.*

Annotation: *The article discusses the life experience and practical views of our people formed in the way of life, the role of teaching folk pedagogy and the features of folk pedagogy in the process of education of the young generation.*

Key words: *Folk pedagogy, national upbringing, upbringing, education, values, folk oral creativity, educational effectiveness.*

Xalq pedagogikasi muayyan xalqning o'zi bilan birga dunyoga kelgani uchun ham uning tarixi xalq tarixi bilan tengdir. Xalq pedagogikasining yana bir belgisi amaliyotga egaligidir. Xalq pedagogikasi yosh avlod ko'z o'ngida urf – odat, an'ana, udum, xulqodoblari tarzida aks etadi. Yosh avlod tarbiyasida xalq pedagogikasining ahamiyati juda katta. Bu pedagogika yosh oilalar va o'quvchilar uchun rus tili, tarix va boshqa fanlarni o'rganish uslubini o'rganishda keng qo'llaniladi. Xalq pedagogikasi yosh oilalarga o'z farzandlariga qanday ta'lim berish va ulardagi ixtiyoriy yutuqlarni rag'batlantirishni o'rgatish va yo'lga qo'yishga yordam beradi.

Pedagogika fanida Xalq pedagogikasiga xos bir necha belgilar mavjud bo'lib, eng muhim belgilaridan biri bu - uning qadimiyligidir. Har qanday xalq muayyan etnos sifatida mavjud bulishi uchun o'ziga xos qiyofaga ega bo'lishi kerak. Xalqning ijtimoiy, ma'naviy, intellektual qiyofasi esa uning ped. vositasidagina shakllanadi.



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



G.A.Hidoyatov, B.A.Qodirov, O.M.Musurmonova, M.Sherboev, R.Usmonov, A.K.Munavvarov, U.Mahkamov kabi ko'pgina olimlarimiz tomonidan yaratilgan ilmiy pedagogik adabiyotlar xalq pedagogikasi sohasidagi muhim manba sanaladi. Ayniqsa, «Xalq pedagogikasi», «Pedagogika tarixi», «Pedagogika» kabi darslik va qo'llanmalardan asosiy manba sifatida foydalanganimizni alohida e'tirof etamiz. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, xalq pedagogikasi juda ko'p qirrali bo'lib, maxsus o'rganishni talab etadi. O'zbek xalq pedagogikasi mazmunan boyib, mukammallashib borishida ilm-fanning boshqa sohalari ular bilan bevosita aloqada bo'ladi va eng yaxshi namunalarini o'ziga qabul qilib oladi.

Milliy tarbiya mazmuni, asosan, ta'lim tizimida milliy o'zlikni, qadriyatlarini, madaniyat va tarixni targ'ib qilishni o'z ichiga qamrab oladi. Bundan ko'zlangan maqsad o'z millati, tili, urf-odatlariga mansublik, g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish, xalqlar o'rtasida hamjihatlikni mustahkamlashdan iborat. Bunday yondashuvlar milliy merosni asrab-avaylash va yosh avlodlarga yetkazish, shu orqali milliy o'zlikni rivojlantirishga hissa qo'shish muhimligini ta'kidlaydi.

Yosh avlodni tarbiyalash jarayonining asosiy maqsadi jamiyatga manfaatli kishi sifatida tayyorlash va ularning patentsiyalarini rivojlantirishdir. Ularga milliy, madaniy va ma'naviy qadriyatlarni o'rgatish va ularning shaxsiy rivojlanishini himoya qilish uchun zarur bilim tajribalar bilan ta'minlashdir. Yosh avlodni tarbiyalashda ota-onalar, o'qituvchilar va jamiyatning boshqa a'zolari samarali rol o'ynaydilar. Kelajak yoshlarini yaratishda milliy madaniy va xorijiy ta'limning muhim o'rinlari mavjud bo'lib, har bir o'zbekistonlik yoshlarni xorijiy millatlar va funyo madaniyati bilan tanishish, o'zining milliy ma'naviy qadriyatlari, talablariga javob bera olishlari uchun tayyorlaydi.

Xalq pedagogikasi fanining metodologik asosini Prezidentimiz asarlarida olg'a surilgan milliy, madaniy merosni asrab-avaylash, ularni o'rganish, yanada boyitib kelajak avlodlarga meros qoldirish haqidagi fikrlar; falsafaning jamiyat, shaxs, ong va ularni tarbiya vositasida o'zgartirish mumkinligi haqidagi qonuniyatlari; buyuk ajdodlarimizning pedagogik qarashlari; komil insoni tarbiyalash, shakllantirish va rivojlantirishga diyor diniy ta'limotlar tashkil etadi.

Xalq pedagogikasi manbalari tizimi (afsonalar, rivoyatlar, dostonlar, qo'shiqlar, aytishuvlar, tortishuvlar, allalar, yallalar, topishmoqlar, maqollar, matallar, o'lanlar, madhiyalar, marsiyalar, marosim, aytimlari, xalq o'yinlari va b...)ni ko'zdan kechirganimizda yuqoridagi fikrlarning to'g'riligi ayon bo'ladi. Chunonchi, barcha manbalarda, agar ular musulmon dini tarqalgan hududlarda yaratilgan bo'lsa, etnopedagogik asarlar qahramonlari diniy tushunchalarga ishonadi, shariat qonunlaridan chetga chiqmaydi, milliy tarbiya sifatlariga ega bo'ladi.

Xalq donishmandligi va odobnomasining bu nodir sohasi ijtimoiy va maishiy-axloqiy hayotning barcha tomonlarini, xalq og'zaki ijodi, qadrshunosligi, udumshunosligi va marosimshunosligining yetakchi yo'nalishlarini, diniy-axloqiy



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



ta'limotni qamrab olishi bilan xarakterlanadi. U xalqimizning asrlar davomida to'plangan boy tajribalarini, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, falsafiy, ma'rifiy, estetik, ma'naviy hamda jismoniy yetuklik borasidagi qarashlarini, tajriba-xulosalarini lo'nda, ammo bag'oyat teran; donishmandnamo tarzda ifodalaydi. Ilk bor yaratilayotgan «O'zbek xalq pedagogikasi»da dono xalqimizning ta'lim-tarbiya, axloq, odob, inson qadriyatlari va uning ma'naviy ustuvorligi, iymon-e'tiqodi butunligi sohasidagi dunyoqarashi, amaliy faoliyati, usul-metodlari, an'analari tabarruk islomning odob-axloq, ilmu fan haqidagi ta'limotiga bog'liq holda, muqaddas Qur'oni karim va payg'ambarimiz Muhammad Rasulullohning muborak hadisi shariflariga suyangan holda yoritish mo'ljallangan. Tadqiqotda Ollohning ilohiy mo'jizasi - hayot sarvari Insonning ona qornida paydo bo'lishidan tortib, to tug'ilganiga qadar, ilk tarbiyasidan tortib, to voyaga etguncha hamda oila qurgunga qadar, yoshini yashab to omonatni topshirgungacha bo'lgan axloqiy, aqliy, estetik mehnat, ekologik tarbiyasi, shuningdek jismoniy chiniqish bilan bog'liq o'yinlar, xalq pedagogik an'analarning hozirgi zamon yosh avlod ta'lim-tarbiyasida tutgan o'rni hamda ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Shu bilan birga o'zbek an'anaviy, ommaviy bayram-sayllari, rasm-rusmlari, odatlari va udumlarida aks etgan axloqiy qarashlar, ularning o'ziga xos odobnomasi, ibratnomasi kabi bag'oyat dolzarb mavzularni yoritishga ham harakat qilinadi.

Xalq pedagogikasinnig manbalari ma'lum tarbiyaviy imkoniyatlarga ega bo'lib, ular eng avvalo maktabning (yoki oilaning) oldida turgan maqsad va vazifalaridan, so'ngra esa aniq pedagogik jarayonda hal etiladigan masalalaridan kelib chiqadi. Xususan, o'quv jarayonida yoki sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlariga murojaat etish mumkin. Masalan, boshlang'ich sinflarda, aniqrog'i 3-sinfda o'zbek xalq maqollari o'rganiladi. Mazkur sinf uchun "O'qish" darslaridan birida "O'zbek xalq maqollari" mavzusi bor. Dars jarayonida foydalanish uchun xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlari aniqlanadi. O'qituvchi xalq tarbiya an'analari imkoniyatlarini aniqlashda darsning maqsadlariga e'tibor beradi. YA'ni, "O'zbek xalq maqollari" mavzusidagi darsning quyidagi maqsad va vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin: xalq og'zaki ijodi namunalari bilan tanishtirish, maqollarni o'rgatish va ular haqida tasavvur hosil qilish; maqollarning mazmunidan foydalanib, o'quvchilarni mehnatsevarlikka, kamtar va odobli bo'lishga, o'zidan kattalarni hurmat qilishga undash; xalq og'zaki ijodi namunalari to'plash va ularni asrashga chaqirish, g'oyalarini uyg'unligi. Jamiyatimizda yangilanish jarayoni ketayotgan, qadriyatlarimiz tiklangan bir paytda milliy - ma'rifiy boylıklarimiz sirasiga kiruvchi o'tmish donishmandlari, buyuk allomalar va mutafakkirlarning bizga qoldirgan bebaho merosini o'rganish katta ahamiyat kasb etmoqda. Xalqimizni jahonga tanitgan buyuk siymolar, ulug' allomalar, mard va qahramon farzandlarning hayot yo'li, butun



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



faoliyati bugungi va kelajak avlod uchun ibrat maktabi bo'lib qoladi, zamonlar o'tishi bilan bu nodir ma'naviy durdonalarning qimmatini va ahamiyatini yanada oshib boraveradi. Ulug' ajdodlarimizning ana shu boy merosidagi pedagogik g'oyalari xalq pedagogikasida atroflicha o'rganiladi. Chunonchi, xalq pedagogikasi xalqning tarbiya bo'yicha tajribalar majmui deb qaraladigan bo'lsa, allomalarimizning yosh avlodni axloqiy tarbiyalash borasidagi pedagogik g'oyalari xalq donishmandligi, xalq dunyoqarashi bilan o'zaro uyg'un va chambarchas bog'liqdir. Zaminimizda yashab o'tgan, bugun ham dunyo ahi ini hayratga solayotgan buyuk allomalarimizning ibratli hayoti va mislsiz ilmiy- ijodiy kashfiyotlari, ulardagi axloqiy ta'limotlar haqida to'liq ma'lu- motga ega bo'lish juda muhimdir. Zero, yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, «Bizning o'z oldimizga qo'ygan maqsadimiz bunday ulug' zotlarning hayot yo'li va qoldirgan merosini to'liq tasvirlash etnas, balki ularning eng buyuk namoyandalari timsolida ma'rifat, ilmu fan, madaniyat, din kabi sohalarining barchasini o'zida uyg'unlashtirgan xalqimizning ma'naviy olami naqadar boy va rangbarang ekanini isbotlab berishdan iboratdir. Bunday noyob va bebaho boylikni har tomonlama chuqur o'rganish, uning ma'no-mazmunini farzandlarimizga yetkazish masalasi barchamiz, birinchi galda, ziyolilarimiz, butun jamoatchiligimiz uchun ham qarz, ham farz bo'lishi shart deb hisoblayman.»

O'zbek xalq pedagogikasiga xos xususiyatlar – insonparvarlik, ochiq ko'ngillilik, saxovatlilik, poklik, to'g'ri so'zlik, haqiqatgo'ylik, rostgo'ylik, yaxshi qo'shnichilik, tinchliksevarlik, vatanparvarlik, baynalmilallik kabi fazilatlardan iborat bo'lib, bu fazilatlar tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy shartsharoitlar bilan belgilanadi va umumbashariy xususiyat kasb etadi. SHu ma'noda xalq pedagogikasi ma'lum davrda yashagan xalq, elat, guruh madaniyati, ma'naviyati, ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlarining tarkibiy qismidir. Uning umumbashariylik xususiyati shundan iboratki, u demokratik yo'nalishda rivojlanadi, xalqning eziguliklari, orzu niyatlari va g'oyalari ifodalaydi.

O'zbek xalq pedagogikasidagi ilg'or g'oyalar – yosh avlodni aqliy va jismoniy jihatdan etuk, ma'rifatli, bilimli va kasb-hunarlarini egallagan, odob-axloq qoidalarini mujassamlashtirgan, barkamol inson qilib tarbiyalashdir.

O'zbek xalq pedagogikasi urf-odat, an'ana va qadriyatlarini bir avloddan ikkinchi avlodga og'zaki tarzda o'tadi, so'ngra og'zaki ijod va yozma adabiyot mahsuli – maqol, masal, topishmoq, ertak, latifa, qo'shiq, lapar, askiya, dostonlar vositasida ommalashadi. SHu sababli ham, xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot, asrlar davomida yaratib kelingan xalq latifa va qo'shiqlari, lapar va askiyalari, hikmatlari, maqollar va masallar, ertaklar va dostonlarida o'zbek pedagogikasining zamini, fundamenti va yagona tarbiya vositasi bo'lib kelmoqda.

Har bir jamiyatda yashagan xalq ruhi: do'stlik, birodarlik, mardlik, vatan va xalqqa sodiqlik g'oyalari ifodalangan, ulug'langan; ota-onaning o'zaro ahilligi, ular bilan



**FARZAND TARBIYASIDA OTA-ONALAR ROLI:
ZAMONAVIY PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR**
mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya



farzandning o‘zaro mehr-muhabbati, qadr-qiymati, eng yaxshi insoniy fazilatlarini tarannum qilingan.

Hozirgi zamon ta’lim-tarbiya tizimi o‘zbek pedagogikasi tarixi turli oqimlar, jarayonlar ta’sirida rivojlanib keldi, yuksak umuminsoniy qadriyatlar asosida taraqqiy topib bormoqda. O‘tgan davrlarda mutafakkir olimlarning o‘z munosabatlarini uning yoshlarga tarbiyaviy ta’sirini yanada kuchaytirish maqsadida, o‘z tajribalarini nafaqat xalq pedagogikasining qator shakllari, usullarini qayta tiklash uchun, balki shaxsni shakllantirishni boshqaruvchi ob’yektiv umumiy ijtimoiy qonunlar, xalq turmush tarzini tushunish uchun ham ularning boy merosini o‘rganish lozim. Bu davlatimizda ta’lim-tarbiya sohasida qabul qilinayotgan qonunlarida ham o‘z aksini topgan bo‘lib, yurtimiz ma’naviy- ma’rifiy ishlarning rolini oshirish orqali yoshlarimizni ma’naviy hamda jismoniy jihatdan barkamol, vatanparvar, o‘zligini va o‘z tarixini yaxshi biladigan insonlar qilib tarbiyalash – asosiy maqsadimizdir. Bundan tashqari, milliy qadriyatlarimizni o‘zida aks ettirgan istiklol mafkurasini yoshlar ongiga singdirishda o‘zimizga xos milliy xususiyatlarimizni unutmasligimiz kerak. Bu milliy xususiyatlarimiz oila, mahalla, ona yurt muqaddasligi, ota-onaga, Vatanga, kattalarga hurmat, ona tiliga muhabbat, sabr-bardoshlilik, mehnatsevarlik, halollik, mehr-oqibat kabi fazilatlarimizdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Sh.Mirziyoyev. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo‘lida yanada hamjihat bo‘lib, qat’iyat bilan harakat qilaylik.-T.:O‘zbekiston, 2017-B

3. Erkaboyeva N.Sh.”Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda pedagogik fikrlarning rivojlanishi” Monografiya. Toshkent. “Fan va texnologiyalar” 2006 y.

4. Xodjiyeva Z.O’ ”Didaktik tizimni modellashtirish orqali o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlarini insonparvarlashtirish” . Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Samarqand 2021 y.

5.O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi(2000-2005).

6. file:///C:/Users/user/Downloads/xalq_pedagogikasi__qiyosiy_pedagogika.pdf